

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA MAHALLALARDA XOTIN-QIZLARNING FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATI**Berdiyeva Shoira Axmadjonovna**

JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi

kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078101>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlarning ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalla institutining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, xotin-qizlarning faolligini oshirishda ta'limiy va psixologik omillarning ahamiyati yoritiladi. Maqolada sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari hamda u orqali xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sinergetik yondashuv, mahalla, xotin-qizlar faolligi, pedagogik imkoniyatlar, psixologik omillar, ijtimoiy faollik, ma'naviy rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируются психолого-педагогические возможности развития социальной, духовной и образовательной активности женщин в микрорайонах на основе синергетического подхода. Также освещается роль института махалли в развитии общества и значение образовательных и психологических факторов в повышении активности женщин. В статье рассматриваются особенности синергетического подхода и механизмы развития социальной активности женщин посредством него.

Ключевые слова: синергетический подход, соседство, женская активность, педагогические возможности, психологические факторы, социальная активность, духовное развитие.

Abstract: The article analyzes the psychological and pedagogical possibilities of developing the social, spiritual and educational activity of women in microdistricts based on a synergistic approach. Keywords: synergistic approach, microdistrict, women's activity, pedagogical opportunities, psychological factors, social activity, spiritual development. The features of the synergistic approach and the mechanism for developing women's social activity with its help are considered.

Keywords: synergistic approach, neighborhood, women's activism, pedagogical opportunities, psychological factors, social activism, spiritual development

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan mahallaning ijtimoiy faolligiga, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga bog'liqdir. Mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etishda sinergetik yondashuv muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Sinergetik yondashuv mahallani murakkab, ochiq va o'z-o'zini rivojlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida talqin etib, undagi barcha subyektlarning o'zaro ta'siri natijasida yangi sifat holatlari yuzaga kelishini e'tirof etadi.

Pedagogik imkoniyatlar — bu ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, vositalar, metodlar, mazmun va subyektiv omillar majmuidir. Ya'ni, pedagogik imkoniyatlar orqali o'quvchi (yoki tarbiyalanuvchi)ning bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va ijtimoiy tajribasi shakllantiriladi. Pedagog nimaga tayanib, qaysi vositalar va usullar yordamida maqsadga erisha oladi — mana shu pedagogik imkoniyatlar hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan sinergetik yondashuv xotin-qizlarning shaxsiy tajribasi, ehtiyojlari va ichki imkoniyatlariga tayangan holda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni nazarda tutadi. Mahalla sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat rasmiy ta'limdan farqli ravishda, norasmiy va informatsion ta'lim shakllari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, treninglar, davra suhbatlari, mahorat darslari, ijtimoiy loyihalar va jamoaviy faoliyat turlari xotin-qizlarda ijtimoiy

faollik, tashabbuskorlik, yetakchilik hamda muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sinergetik yondashuvda ushbu pedagogik vositalar bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtayi nazardan sinergetik yondashuv xotin-qizlarning ichki motivatsiyasini faollashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy faollikka to'sqinlik qiluvchi psixologik to'siqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Mahallada guruhiy faoliyat va hamkorlik asosida olib boriladigan psixologik ta'sirlar empatiya, o'zaro qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi. Bu esa xotin-qizlarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishiga hamda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon yaratadi. Sinergetik yondashuvning muhim jihatlaridan biri shundaki, mahalladagi har bir kichik ijobiy o'zgarish umumiy tizim rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, bir nafar faol va tashabbuskor ayolning ijtimoiy faolligi boshqa xotin-qizlarda ham ijobiy motivatsiya uyg'otib, mahalla miqyosida faollikning oshishiga olib keladi. Natijada ijtimoiy jarayonlar o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini rivojlantirish xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, sinergetik yondashuv asosida xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi, xalqimiz tomonidan yaratilgan yozma va og'zaki ijodiyot namunalari (O'rta Osiyo va Sharq mutafakkirlarining durdona asarlari nazarda tutilgan);

Ikkinchi, xalq ma'naviyatining sarchashmalari bo'lgan milliy an'analar, urf-odatlar, hadislar, hikmatlar, donalar bisoti yordamida oilada farzand tarbiyasiga mas'ul ayollarning ma'rifiy dunyoqarashini boyitishga erishish;

Uchinchi, umuminsoniy qadriyatlarga aylangan jahon intellektual mulki g'arb mutafakkirlari ijodiyoti va jahon madaniyatini o'rganish;

To'rtinchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari;

Beshinchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonun, Qaror, farmon va farmoyishlari, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar.

Xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish muammolari Respublikada amalga oshirilayotgan yangicha islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti va kelgusi avlod tarbiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarni ijtimoiy va ma'naviy hayotda faolligini oshirish quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

1. Xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish masalasi siyosiy va ijtimoiy ahamiyati bilan umummilliy darajadagi muammo tavsifiga ega bo'lib, barcha etnik - milliy guruhlarining vakillari manfaatlarini, ehtiyojlari, huquq va erkinliklariga taalluqlidir.

2. Mazkur masala tashkiliy va mazmun jihatdan huquqiy va ijtimoiy tenglikni belgilaydi. Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari davlat yordami va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi yechimini kutayotgan muammolarini o'zida mujassamlashtiradi.

3. Xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish zaruriyati, yoshlar tarbiyasiga e'tiborni oshirish muhimligi, qizlarni milliy ruhda tarbiyalashga ta'sir qiluvchi "ma'lumotlar"ni miqdor jihatdan ko'payishi bilan bog'liqdir.

4. "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanishini oldini olish;

5. Xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish uchun "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etilganligi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tuzilmasi¹; mahallalardagi xotin-qizlar faollari, "Oila" markazi yoki nodavlat muassasalari ijtimoiy - huquqiy maqom, tegishli dastur va nizomlar bilan qonuniy ta'minlanishi zarur.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma'naviy faolligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan faoliyat mazmuni uch yo'nalish bo'yicha amalga oshirildi:

1. Mahallalar kesimida xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ma'naviy faolligini oshirishga qaratilgan, shuningdek gender tenglik va oila masalalarida har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

2. Sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlarning ma'naviy-axloqiy va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

3. Oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda mahalla faollari mas'uliyati va jamoatchilik javobgarligini oshirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish.

Mahallalar kesimida xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ma'naviy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarini ishlab chiqishda:

- xotin-qizlarning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalari uyg'unligini ta'minlash;

-oilaviy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlar (qizlar)ongiga singdirish ;

-ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash asosida qizlarni hayotga tayyorlash;

-ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish², ularning insonparvarlik g'oyalarini hayotga keng tatbiq etish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish;

Mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirishda:

-xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

-oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;

-xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

-xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlar yo'nalishidagi NNT faoliyatiga yordam ko'rsatish³.

Sinergetik yondashuv asosida xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u oila, mehnat faoliyati, mahalladoshlari va jamoa bilan munosabatida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar faolligining ijtimoiy portreti bu ilmiy, ijodiy faoliyatda, ijtimoiy ishlab chiqarish va oilaviy vazifalarni bajarishdagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 9 август 2022 йилдаги 438-сонли “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан ўзбекистон республикаси ҳукуматининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида” ги Қарори.
2. G'aniyeva G.J. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondoshuv, muammolar va yechimlar. (Mustaqillik davri 1991-2005-yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2006
3. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. - T.: Mehnat, 2001. 195 b.
4. Egamberdieva N.M Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. (pedagogika oliy ta'lim

- muassasalari misolida) 13.00.01- umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi. Toshkent 2010 24-25 bet.
5. Бердиёрова Ш.А. Махаллаларда хотин -кизлар маънавий -маърифий фаоллигини такомиллаштириш ижтимоий -педагогик Муаммо сифатида. Гулистон Давлат Университети ахборотномаси. 23-27 б 2023 й.
 6. Berdiyoroova Sh.A. (Republic of Uzbekistan) cooperation of state and nonstate organizations in increasing the spiritual and educational activity of women in society on the basis of asynergistic approach / бердиёрова ш^.. сотрудничество государственных и негосударственных организаций в повышении духовной и образовательной активности женщин в обществе На основе синергетического подхода. lxx international correspondence scientific and practical conference «european research: innovation in science, education and technology» 2021.
 7. Berdiyoroova Sh.A. Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli. journal of multidisciplinary bulletin. ISSN(Online): 2984-6722 SJIF Impact Factor |(2024): 752| Volume-7, Issue-4, Published |20-04-2024|
 8. Sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy faolligini takomillashtirishning muhim ijtimoiy ahamiyati. journal of language and linguistics. SJIF Impact Factor |(2024): 6.572| Volume-7, Issue-4, Published |20-04-2024|
 9. Berdiyoroova Sh.A. Ayol mo'tabar zot. fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. FTAI Jild: 03 Nashr: 06 | June 2022 ISSN: 2181-1776
 10. Berdiyoroova Sh.A. Mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirish. Ta'lim, fan va innovatsiya. 2020/ 4-son. 90-92 betlar